

**ICHKI ISHLAR MAXSUS BO‘LINMALARI XODIMLARINING  
INTUITIV BILISHINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK  
TEKNOLOGIYALARNING O‘RNI  
РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ  
ИНТУИТИВНЫХ ЗНАНИЙ СОТРУДНИКОВ СПЕЦРАЗДЕЛЕНИЙ  
ВНУТРЕННИХ ДЕЛ  
THE ROLE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE  
DEVELOPMENT OF INTUITIVE KNOWLEDGE OF EMPLOYEES OF  
SPECIAL DIVISIONS OF INTERNAL AFFAIRS**

*Iskandarov Jaxongir Sharipovich*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafderasi mustaqil  
tadqiqotchisi*

*Аннотация. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida mamlakatimizda ichki ishlar tizimi ta'lim sohasini rivojlantirishning asosiy tamoyillaridan biri sifatida intuitiv bilishga ega ichki ishlar xodimlarini tarbiyalashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni masalalri tahlil qilingan. Pedagogik texnologiyalardan foydalanishni natijada ichki ishlar tizimi ta'lim sifati oshishi, ichki ishlar xodimlarining har tomonlama intellektual salohiyatini yuksaltirish kuzatildi.*

*Аннотация. В данной статье анализируются вопросы использования современных педагогических технологий в развитии интуитивных знаний сотрудников спецподразделений внутренних дел. В результате использования педагогических технологий отмечено, что повысилось качество образования в системе подготовки сотрудников спецподразделений внутренних дел. Повысились всесторонние интеллектуальные способности работников сотрудников спецподразделений внутренних дел.*

***Annotation.** This article analyzes the use of modern pedagogical technologies in the development of intuitive knowledge of employees of special forces of internal affairs. As a result of the use of pedagogical technologies, it was noted that the quality of education in the training system for employees of special forces of internal affairs has improved. The comprehensive intellectual abilities of employees of special internal affairs units have increased.*

***Kalit so'zlar.** pedagogik texnologiyalar, Intuitiv rivojlanish, Intuitsiya, ilmiy-ijodiy imkoniyatlarini samaradorligini.*

***Ключевые слова.** эффективность педагогических технологий, интуитивное развитие, интуиция, научные и творческие возможности.*

***Keywords.** effectiveness of educational technologies, intuitive development, intuition, scientific and creative capabilities.*

## **KIRISH**

Inson intuitsiyani shakllantirish uchun boshlang'ich davrda bir kunlik vaqt taqsimotini 100% deb olsak, shundan 55% ni sohasini rivojlantirish uchun ; 15% ni ruhan o'sish uchun; 15% sport bilan shug'ullanish uchun yana 15% ni oilaga vaqt ajratishdan boshlanadi. Bunday hayot tarzi insonni har tomonlama rivojlanib, baxtli gormoniyada yashashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Keyinchalik intuitsiyani mukammal rivojlantirish uchun bir kunlik vaqt taqsimotida sohasini rivojlantirish uchun 25%; ruhan o'sish uchun 25%; sport bilan shug'ullanish 25%; oilaga vaqt ajratish 25% tarzida doimiy rivojlanib borish xam oilada xam jamiyatda o'z xurmati-o'rnini egallashini ta'minlaydi, sog'likni mustahkamligini saqlagan holda sohasini yanada rivojlantirib borishi nafaqat o'zining barkamol kelajagiga, balki el-yurtining yanada rivojlanib gullab yashnashiga o'z xissasini qo'shadi.

Intuitiv bilish qobiliyatiga ega ichki ishlar xodimlarini ilmiy-ijodiy

---

imkoniyatlarini samaradorligini oshirish maqsadida ichki ishlar tizimi ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda zamonaviy ichki ishlar tizimi fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rgatish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sababi, YUNESKO tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, "...turmush uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi, barqaror rivojlanishga erishish maqsadini ta'minlovchi maskan oliy ta'lim muassasasi bo'lib qolmoqda xamda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida oliy ta'lim olishga ehtiyoj bugungi kunda jadal o'sib bormoqda.

Bu holat statistik ma'lumotlarga ko'ra, rivojlanmagan mamlakatlarning 8 % yoshlari universitetlarda tahsil olayotgan bo'lsalar, eng rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 74 %ni tashkil qilayotganligi qayd etilgan". [1]

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ushbu maqolani yozishda analiz, sintez, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, induksiya, deduksiya kabi metodlardan foydalanildi.

### **NATIJALAR**

Zamonaviy oliy ichki ishlar tizimi ta'lim tizimi bo'lajak ofitserlarni intuitiv yondashuvlar asosida tadqiqotchilik layoqatini tarbiyalash mexanizmlarini va ularni amaliyotga joriy etishning innovatsion tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Shu jihatdan ichki ishlar tizimi ta'lim sohasida ichki ishlar xodimlarining intuitiv yondashuv asosida tadqiqotchilik layoqatini tarbiyalash innovatsiyalarni yaratish, yangi bilimlarni yaratuvchi zamonaviy paradigmal yonadshuvlar asosida kognitiv hamda divergent fikrlash qobiliyatni tarbiyalash orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning intellektual resurslarini yaratish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham dunyo miqyosida tayyorlanayotgan ichki ishlar tizimi mutaxassis-kadrlarda tadqiqotchilik layoqatini tarbiyalashning intellektual omillarini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan.

Bu borada raqobatbardosh yosh ichki ishlar tizimi kadrlarni tayyorlashning mazmuni va ilmiy-metodik bazasini rivojlantirish, ta'lim jarayonida nostandart

ilmiy-amaliy yechimlarni o'zini o'zi faollashtirish asosida o'zlashtirish, yangi ichki ishlar tizimi fanlarga doir o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyani oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlar muhim o'rin egallaydi.

Shu nuqtai nazardan oliy ichki ishlar tizimi o'quv yurtlarida bo'lajak ofitserlarning tadqiqotchilik layoqatini intuitiv yondashuv asosida tarbiyalash katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ichki ishlar xodimlari intuitiv bilishini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Binobarin, xorijlik ichki ishlar tizimi soha vakillari aynan yosh ichki ishlar xodimlari intuitiv bilishini rivojlantirish asosida bu tizimni samaradorligini ta'minlashga harakat qiladi.

Murakkab global o'zgarishlar sharoitda esa kuchli ichki ishlar tizimi raqobatga bardosh bera olish uchun har bir davlat o'ziga xos ichki ishlar tizimi-siyosiy munosabatlarining oltin qoidasiga amal qilish talab etiladi. So'nggi bir asr davomida bosqichma-bosqich, biroq izchil rivojlanib kelayotgan ichki ishlar tizimi ta'lim texnologiyalari bevosita ichki ishlar tizimi sohani jadal rivojlantirish jarayonini qo'llab-quvvatlash, ichki ishlar tizimi ta'lim va tarbiya tizimining sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, yuqori intellektga ega, ma'naviy-ruhiy jihatdan barqaror, raqobatbardosh ichki ishlar tizimi mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadlariga xizmat qilmoqda.

Respublikamiz ichki ishlar tizimi ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida axborot muhitini keng joriy qilish sharoitida intuitiv yondashuv asosida ichki ishlar xodimlarining tadqiqotchilik faoliyatiga barqaror qiziqishini ilg'or xorijiy tajribalarga tayangan holda rivojlantirish imkoniyatlari yaratilgan bo'lib, intuitivlik xamda innovatsion tafakkur muhim indikator sifatida e'tirof qilindi. Ichki ishlar xodimlarida tadqiqotchilik layoqatini intuitiv yondashuv asosida tarbiyalash va izlanuvchanlik sifatlarini har tomonlama yuksaltirishga xizmat qiluvchi moddiy-texnik baza, meyoriy-huquqiy hujjatlar bazasi tubdan yangilandi.

Zero, aynan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy xamda innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali

mexanizmlarini yaratish, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish" [2] ustuvor vazifalar alohida belgilab berilgan. Bu boradagi vazifalar ta'lim jarayonlari mazmunini ilmiylashtirish, talabalarning kognitiv va divergent tafakkurini shakllantirish hamda ijodiy tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **MUHOKAMA**

Ichki ishlar xodimlaridagi boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi intuitivlik ham birdaniga shakllanmaydi.

Ichki ishlar xodimlarida intuitivlik muayyan ta'lim va tarbiya bosqichlarida izchil shakllantirilib, rivojlantirilib boriladi. Odatda intuitivlik ichki ishlar xodimlarining faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansa-da, ammo bu holat ularning kelgusida katta yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari lozim, degan ehtimolni ifodalaydi.

Ichki ishlar xodimlarining intuitiv potensial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda tafakkurning tezkorligi xamda egiluvchanligida, yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati, shu bilan birga, shaxs xarakteriga xos jihatlar – bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilish, zakovatli bo'lishda aks etadi.

Intuitiv faoliyat ichki ishlar maxsus bo'linmalari xodimlarining bevosita ilmiy-ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lib, u asosida yangi moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratiladi.

O'z navbatida, ichki ishlar maxsus bo'linmalari xodimlarining tadqiqot va ijodiy mulohazalari ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish orqali istiqbolli vazifalarning optimal yechimini tanlay bilish xamda amaliy faoliyatida tajriba-sinov ishlarini o'tkazishni talab qiladi. Demak, ichki ishlar tizimi sohani tubdan isloh qilishda ilm-fanning rivoji va uni takomillashtirishga bo'lgan intilish, izlanishlar har bir jamiyatning ilmiy-ijodiy taraqqiyoti xamda madaniyatining yuksak

ko'rsatkichlaridan biri hisoblandi.

Ichki ishlar maxsus bo'linmalari xodimlarining intuitivlik potensialini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali sanaladi: tadqiqiy vazifalar; ichki ishlar tizimi sohadagi ilmiy-ijodiy izlanuvchanlikka chorlovchi vaziyatlar; ichki ishlar tizimi sohadagi individual nazariy xamda amaliy ishlanmalar; ichki ishlar tizimi fan va texnika sohasidagi innovatsion loyihalar; «ichki ishlar tizimi savodxonlik» va boshqalar. Chunki, A.Egamberdiyev to'g'ri ta'kidlaganidek, “Innovatsion ong – fundamental bilimlarni o'zida aks ettirgan, jamiyatda amalga oshayotgan innovatsion jarayonlarni anglab yetgan va shaxsni bu jarayonlarga yo'naltiruvchi ong. Uning tarkibiy qismi innovatsion ruhiyat, xulq-atvor, tafakkur, faoliyat va innovatsion salohiyatdan tarkib topgan” [3]

### **XULOSA**

Zamonaviy sharoitda har bir ichki ishlar xodimi o'zida quyidagi intuitiv qobiliyatlarni tarbiyalay olishi lozim:

- 1) ichki ishlar tizimi sohada qarorlarni qabul qilishdagi sezgirlik (kasbiy ziyraklik, boshqalarga hamdard bo'la olish, ichki sezgiga ega bo'lish);
- 2) ichki ishlar tizimi jamoadagi barqarorlik (o'z-o'zini tuta bilish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilish);
- 3) nafaqat jangovor faoliyatdagi harakatchanlik, o'z qo'l ostidagi askarlarga irodaviy ta'sir ko'rsatish va ishontirish qobiliyatiga egalik;
- 4) o'z qo'l ostidagi askarlarni diqqatini faol torta olish qobiliyati;
- 5) ichki ishlar tizimi jangovor harakatlarni ratsional holda bashoratlay bilish;
- 6) ichki ishlar tizimi-kasbiy faoliyatdagi mustaqillik, ijodiy qobiliyatga egalik.

Ichki ishlar maxsus bo'linmalari xodimlarini xamda ichki ishlar tizimi jamoalarni o'qitish jarayonini o'zlashtirish davomida quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

-ichki ishlar maxsus bo'linmalari xodimlarini o'qitish mazmuni, texnologiyasi, shakllari va usullarini o'zlashtirish;

-ichki ishlar maxsus bo'linmalari xodimlarini tayyorlashda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash;

-intuitiv bilishni rivojlantirish va uni samaradorligini baholash va o'qitishning istiqbolli natijalariga olib keladigan yangi usullarni izlash.

Ushbu muammolarni hal qilish davrida o'quv jarayonining nazariy tuzilmasi uchun asos ajratilgan bo'lib, natijada bo'linmalar, bo'linmalar va tarkibiy tuzilmalar xodimlarini o'qitish uchun mavjud uslubiy tizimlarning yaratilishi va takomillashtirilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy vaziyat nafaqat ichki ishlar xodimlarini o'z vazifalarini rejalashtirish va samarali bajarish uchun nafaqat inson resurslari, balki shaxsning intuitiv bilishini rivojlantirish muhimligini anglash bilan tavsiflanadi. Zamon talablariga javob berishga majbur bo'lgan zamonaviy armiyani rivojlantirish faqat barcha xodimlar, xususan ofitserlarning yuqori malakasini shakllantirishni taqozo etadi. Ichki ishlar tizimi o'quv yurtlarining asosiy vazifalari - ofitser shaxsini, uning umumiy va ichki ishlar tizimi-kasbiy madaniyatini shakllantirish; ichki ishlar tizimi ishlarda ijtimoiy jarayonlarning borishini, ularning dialektik birligida tahlil qilish va bashorat qilish qobiliyatini rivojlantirish; ichki ishlar xodimlariga ichki ishlar tizimi zobitning burchini, sharafini, qadr-qimmatini, Vatanga muhabbat hissini singdirish muhim hisoblanadi.

Ofitser real voqealarning rivojlanishini oldindan bilishi shart. Uning harakatlari bashoratli bo'lishi kerak, bu mustaqil ravishda olingan kasbiy bilimlarning mavjudligini anglatadi. Chunki Karima Tulenova to'g'ri ta'kidlaganidek, "Ilmiy bashorat – bu o'tmish va bugunning noma'lum hodisalari (narsalari, jarayonlari, qonunlari, dalillari va hok.) shuningdek, mashhur nazariyalar, qonunlar, gipotezalar asosidagi xulosa sifatida ilgari suriladigan kelajak hodisalariga nisbatan ular haqidagi taxminlardir" [4].

Hozirgi zamonaviy sharoitlarda intuitivlik ofitser shaxsining sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarga moslashuvi mexanizmi sifatida gavdalanadi.

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiyoti dinamikasi, ayni vaqtda, insonlarning ma'naviy hayotida ham jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. <https://thinktanks.by/publication/2017/04/21/yunesko-kolichestvo-studentov-v-mire-s-2000-po-2014-godudvoilos.htm>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистонни Ривожлантириш бўйича Ҳаракат стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонуни ҳужжатлар тўплами. – Тошкент; 2017 – б.37.
3. Эгамбердиев А.А. Ўзбекистонда модернизация шароитида ёшларда инновацион онг шаклланишининг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Фан доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2019. – Б. 17.
4. Туленова К. Предвидение и реальность. – Ташкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 1998. – 45 с.